

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TO'G'RI SHARHLASHDA
HUQUQNI SHARHLASH USULLARINING AMALIY AHAMIYATI**

Rasulbekova Risolat

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

**ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ТОЛКОВАНИЯ ПРАВА В
ПРАВИЛЬНОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
ДОКУМЕНТОВ**

Расулбекова Рисолат

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

**THE PRACTICAL IMPORTANCE OF LEGAL INTERPRETATION
METHODS IN CORRECTLY INTERPRETING
NORMATIVE LEGAL ACTS**

Rasulbekova Risolat

Master's student of Tashkent State Law University

KIRISH

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev haqli ravishda e'tirof etganidek, qonunlarning to'liqligi, hayotiyliigi va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so'z yuritganda, bu borada hali ko'p ish qilishimiz kerakligini, afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda.¹ Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda huquqni sharhlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyat va davlatning jadal innovatsion rivojlanishi yo'lidan dadil bormoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinishi munosabati bilan qonun

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // www.uza.uz.

ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yangi vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalar tarkibida norma ijodkorligi faoliyati samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida² normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo'lgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan bo'lib, ularga erishish uchun maqsadga erishish ko'rsatkichlari sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmoniga muvofiq, Oliy Majlis palatalari, Konstitutsiyaviy sud, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti hamda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddama-modda ilmiy-amaliy sharhini tayyorlash to'g'risida taklif ilgari surilgan. Hamda shar tayyorlash bo'yicha tahrir kengashi mazkur Farmon bilan tasdiqlanib, sharhni tayyorlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ko'p millatli xalqimizni birlashtirishdagi salohiyatini, unda o'z aksini topgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini ochib berishga, shuningdek, uning matni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2018 yildagi PF-5505-son "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 06/18/5505/1639-son.

aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar uchun tushunarli va sodda tilda bo'lishiga e'tibor qaratish³ ta'kidlangan.

TADQIQOT NATIJALARI

Ta'kidlash joizki, huquqiy normaning ijrosini ta'minlash va sharhlash masalasi zamonaviy huquqshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarni maxsus huquqiy kategoriya sifatida talqin qilish o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega hisoblanib, huquqni qo'llovchi organlar faoliyatida muayyan hayotiy holatlarga nisbatan qo'llaniladi. Normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda to'g'ri amalga oshirish va qo'llash uchun ularni izohlab berish zarurati mavjud bo'lib, shundagina u qo'llanilgan ijtimoiy munosabatlar mazmuni huquqiy normalar ifodasiga mos keladi.

Huquqni sharhlash – bu huquqiy normalarning mazmuni, maqsadi va qo'llanish doirasini ochib berishga qaratilgan aqliy va yuridik faoliyatdir. Bu faoliyat nafaqat qonun chiqaruvchining irodasini aniqlashtiradi, balki huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Huquq normasining ma'nosini tushunishda nafaqat uning mazmuni, balki boshqa ko'rsatmalar va shu normaning elementlari bilan huquqiy aloqalari, shuningdek, huquq normasining boshqa ijtimoiy hodisalar bilan munosabatlari ham o'rganiladi.

Huquq normasini tushunish normaning mazmunini va unda ifodalangan qonun chiqaruvchi irodasini aniqlashga imkon beruvchi vositalar majmuasidan iborat bo'lgan muayyan usullar yordamida amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarda

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-67-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023-y., 06/23/67/0269-son // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6461609>.

huquqni sharhlashning quyidagi usullari ajratib ko'rsatiladi: grammatik, mantiqiy, tizimli, tarixiy-siyosiy, teleologik, maxsus-yuridik va funksional. Bu borada professor A. Vagarshyan huquqiy sharhlashning lingvistik (grammatik, filologik), maxsus-huquqiy, tizimli, mantiqiy, tarixiy-siyosiy va funksional usullarini ajratib ko'rsatadi. Professor A. Gambaryan esa huquqiy sharhlashning tizimli, grammatik, tarixiy-siyosiy va mantiqiy usullari mavjudligini ta'kidlaydi.⁴

Sharhlash usullarining har biri huquq normasining ma'nosini o'ziga xos tarzda, o'z vositalari to'plami bilan va o'z oldiga qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda ochib beradi. Natijada sharhlanayotgan normaning mazmuni "bir tomonlama" ochib beriladi, ya'ni mazkur huquqiy talqin usuli qo'llanilayotgan nuqtai nazar, tamoyillar va yo'nalishlar asosida ko'rib chiqiladi.

Originalizm normani uni ishlab chiquvchilar va qabul qiluvchilar tomonidan qabul qilinish paytida kiritilgan ma'noni ochib berishga intiladi. Originalistlar fikricha, norma matni qabul qilingan paytda obyektiv tan olinadigan ma'noga ega bo'lib, u vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Sharhlovchilarning vazifasi esa o'sha dastlabki kiritilgan ma'noni aniqlash va topishdir. Masalan, konstitutsiyani sharhlashda sharhlovchi konstitutsiya qabul qilingan paytda jamoatchilik tomonidan tushunilgan ma'nosiga tayanishi kerak. Bu nazariyada "konstitutsiyaning dastlabki ommaviy ma'nosi" deb nomlanadi.⁵

Strukturaviy (institutsional) talqinda esa norma mazmunini konstitutsiya tuzilishiga, hokimiyatning uch tarmog'i, davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat hokimiyati va xalq o'rtasidagi mavjud munosabatlarga

⁴ Samvel Jabaghyan. CURRENT ISSUES OF APPLICATION OF LEGAL INTERPRETATION METHODS // PhD student at the YSU Chair of Constitutional Law // – 2023. –№ 2 (96). page 101.

⁵ Scalia, A Matter of Interpretation, Supra note 17, page 44–47.

moslashtirish asosiy e'tiborda bo'ladi. Muayyan huquq normasining mazmunini ochib berishda yuqorida sanab o'tilgan va boshqa mavjud huquqiy talqin usullaridan qaysi biri qo'llanilishi ko'p jihatdan sharhlanishi lozim bo'lgan huquqiy hujjatning xususiyatiga va u qaysi huquq sohasiga mansubligiga bog'liq.

Odatda, huquqiy hujjatni sharhlashni tekstualizm (so'zma-so'z yoki grammatik sharhlash) usulidan boshlash ko'pchilik tomonidan qabul qilingan. Bu usul lingvistik-grammatik qoidalar va usullardan foydalangan holda huquqiy hujjat matniga e'tibor qaratadi. Tekstualizm, odatda, norma ma'nosini unda qo'llanilgan atamalarining norma qabul qilingan paytdagi ma'nosi orqali ochib beradi.

Bu usulning dastlabki qo'llanilishi unga ustunlik berishdan ko'ra, vaqt nuqtai nazaridan ketma-ketlikda namoyon bo'ladi, chunki huquqiy normalar til orqali ifodalanadi. Biroq til qoidalari bilan bir qatorda, normalar matnlarida huquqshunoslik tomonidan shakllantirilgan qoidalar ham mavjud. Bu qoidalar ma'lum bir tilning o'ziga xos xususiyatlari va yuridik amaliyotni umumlashtirish natijasida, qonun hujjatlarining maqsad va talablarini hisobga olgan holda shakllangan bo'lib, ular har doim ham til qoidalariga mos kelavermaydi. Natijada ayrim lingvistik tuzilmalar va iboralar maxsus huquqiy mazmun kasb etishi mumkin.⁶

Yuqorida sanab o'tilgan huquqni sharhlash usullarining har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shu bois, ushbu usullardan qaysi biri qolganlaridan ustun bo'lishi kerakligini aniqlash alohida maqsad hisoblanadi. Masalan, konstitutsiya qoidalarini originalizmga yoki tekstualizmga ko'ra talqin qilish haqida gapirganda, shuni ta'kidlash lozimki, konstitutsiya matni ko'pincha

⁶ Samvel Jabaghyan. CURRENT ISSUES OF APPLICATION OF LEGAL INTERPRETATION METHODS // PhD student at the YSU Chair of Constitutional Law // – 2023. –№ 2 (96). page 102.

konstitutsiyaviy huquqning bir qator asosiy masalalari bo'yicha, shu jumladan konstitutsiya tuzuvchilari va qabul qiluvchilari oldindan ko'ra olmagan yoki tegishni istamagan masalalar yuzasidan mutlaqo jim bo'ladi. Shu sababli, bu holda faqat yuqorida aytib o'tilgan usullarni qo'llash zarur samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Boshqa tomondan, ayrim mualliflar konstitutsiyaning asosiy ma'nosini uni ishlab chiquvchilar va qabul qiluvchilar avlodi tomonidan qat'iy belgilab qo'yilishi mumkinligini, shuningdek, unga muvofiq talqin qilish maqsadga muvofiqligini shubha ostiga oladilar. Buning o'rniga ular hukumatning to'g'ri ishlashini, inson huquqlarini himoya qilishni va boshqa jihatlarni ta'minlaydigan talqin qilish usullarini taklif etadilar.

Jumladan, Armaniston Respublikasining yuridik sharhlashga oid qonunchiligi ham shu tarzda tartibga solingan. Armaniston Respublikasi huquq tizimida huquqni sharhlash qoidalari 2018-yil 21-martda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Armaniston Respublikasi Qonunining 41-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatning normasi quyidagilarni hisobga olgan holda sharhlanadi:

- normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning maqsadi;
- unda mavjud bo'lgan so'zlar va iboralarning so'zma-so'z ma'nosi;
- butun modda, bob va bo'limning tartibga solinishi konteksti;
- ushbu hujjat qabul qilinishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qoidalari;
- ushbu normativ-huquqiy hujjat bilan belgilangan tamoyillar;

- agar bunday tamoyillar belgilanmagan bo'lsa, ushbu huquqiy munosabatni tartibga soluvchi huquq sohasining tamoyillari.⁷

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qonun maqsadli, so'zma-so'z (matniy) va tizimli sharhlash usullarini nazarda tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqni sharhlashning turli usullaridagi muhim farqlar va ularning norma ma'nosini ochishning mutlaqo boshqa-boshqa shakllari hamda yo'llari ekanligi ularning mazmunidan yaqqol ko'rinib turibdi. Buning natijasida shunday xulosaga kelamizki, sharhlash usullaridan faqat bittasini yoki bir nechtasini o'zboshimchalik bilan qo'llash sharhlanayotgan normaning ma'nosini to'g'ri ochib berish uchun yetarli emas. Bundan tashqari, huquqni sharhlash usullari o'ziga xos xususiyatlari tufayli bir-birining o'rnini bosa olmaydi yoki bir-biriga zid bo'la olmaydi. Shu bois, ular sharhlanayotgan normaning ma'nosini iloji boricha to'liq ochib berish uchun birgalikda qo'llanilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquq normasini to'g'ri qo'llash uchun huquqiy sharhlashning asosiy maqsadi norma ma'nosini imkon qadar to'liq ochib berishdan iborat. Bunga sharhlashning faqat bitta yoki bir nechta alohida usullari yordamida erishib bo'lmaydi. Shu bilan birga, sharhlashning barcha usullarini birgalikda qo'llash o'zboshimchalik bilan amalga oshirilmasligi va normaning haqiqiy ma'nosini ochib berishga emas, balki har bir sharhlovchi tomonidan normaga o'zi istagan ma'noni berishga olib kelmasligi kerak. Aks holda bu huquqiy aniqlik tamoyiliga putur yetkazadi va huquqiy tizimning xavfsizligiga tahdid soladi.

⁷ Legal information system of Armenia, <https://www.arlis.am/DocumentView.aspx?Doc-ID=152139>

Shuning uchun ham har qanday huquqiy norma milliy huquq tizimining yaxlitligi va uyg'unligini ta'minlovchi huquqiy hujjat sifatida Konstitutsiya ruhiga mos ravishda talqin etilishi lozim. Huquqni sharhlash usullarini qo'llashni yuqorida qayd etilgan jihatlardan takomillashtirish maqsadida, huquq normalarini, shu jumladan, Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning qoidalarini sharhlashda huquqni sharhlashning barcha mumkin bo'lgan usullarini birgalikda qo'llash, huquq tizimining barqarorligi va yaxlitligini dasturilamal qilib olish, normalarni ular bilan tartibga solinadigan munosabatlarning konstitutsiyaviy ahamiyatiga va Konstitutsiyaning umumiy mantig'iga muvofiq sharhlash orqali amalga oshirish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son // <https://lex.uz/docs/-5378966>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 06/18/5505/1639-son // <https://lex.uz/docs/-3858817>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmoni //

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023-y., 06/23/67/0269-son // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6461609>.

4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. –528 b.

5. Davlat va huquq nazariyasi: darslik / Sh.A.Saydullayev – T. TDYU nashriyoti, 2024.-264b.

6. Samvel Jabaghyan. Current Issues Of Application Of Legal Interpretation Methods // PhD student at the YSU Chair of Constitutional Law // – 2023. –№ 2 (96). page 101.

7. Scalia, A Matter of Interpretation, Supra note 17, page 420.

8. Карташов В. Н. Теория правовой системы общества. Ярославль, 2005. Т. 1. С. 351.

9. Алексеев С.С. Государство и право: начальный курс. – М.,1993.

10. Морозова Л.А. Теория государства и права. – М.: Российское юридическое образование, 2010.

11. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // www.uza.uz.

12. Legal information system of Armenia:
<https://www.arlis.am/DocumentView.aspx?Doc-ID=152139>.